

**“IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-
INNOVATSION TADQIQOTLAR”**

ilmiy-metodik jurnali

Bosh muharrir:

Boltaeva Mohichehra

Tahrir hay'ati:

07.00.00 - Tarix fanlari

- Ergasheva Yulduz — Tarix fanlari doktori, professor
- Zununova Gulchehra — Tarix fanlari doktori, professor
- Kurbonova Zemfira — Tarix fanlari doktori, professor
- Askar Jumashayev — Tarix fanlari doktori, professor
- Nurjanov Sabit Uzakbayevich — Tarix fanlari doktori, katta ilmiy xodim
- Xaydarov G'ayratbek Mirzapulatovich — Tarix fanlari doktori, dotsent
- Seydametova Gulnara Utarbayeva — Tarix fanlari falsafa doktori, dotsent
- Nasirov Bunyod — Tarix fanlari falsafa doktori, dotsent
- Sulaymanov Salamat Arepbayevich — tarix fanlari doktori, dotsent
- Tangirbergenova Kalligul — tarix fanlari nomzodi, dotsent
- Akimniyazova Gulnaz Abdinayimovna, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00 - Falsafa fanlari

- Yaxshilikov Juraboy Yaxshilikovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Saitkasimov Akbar Isaxanovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Musaev Odil Raxmatovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Suvanov Ilxom Abduxalilovich — Falsafa fanlari doktori, katta ilmiy xodim
- Alima Berdimuratova — Falsafa fanlari doktori, professor
- Kabulniyazova Gulchehra Tashpulatovna — Falsafa fanlari doktori, professor
- Siddikov Ilyos — Falsafa fanlari doktori, dotsent

10.00.00 - Filologiya fanlari

- Zakirova Soxiba — Filologiya fanlari doktori, dotsent
- Ganiyeva Shodiya Azizovna — Filologiya fanlari doktori, dotsent
- Soatova Nodira — Filologiya fanlari doktori, professor
- Kobilova Zeboxon Bakirovna — Filologiya fanlari doktori, professor
- Teshaboyev Dilmurod Raxmadjonovich -
Filologiya fanlari doktori DSc, dotsent

13.00.00 - Pedagogika fanlari

- Jo'rayev Risbay Xaydarovich — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Turgunoy Egamberdiyeva — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Ibragimov Xolboy Ibragimovich — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Turakulov Olim Xolbutayevich — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Abdullayeva Barno Sayfutdinovna — Pedagogika fanlari doktori, professor

- Ismoilov Temur Islamovich — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Umid Negmatovich Xo'jamqulov — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Isakulova Nilufar — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Jumanəzova Muxayyo Tojiyevna — Pedagogika fanlari doktori, dotsent

19.00.00 - Psixologiya fanlari

- Abdullayeva Dilbar — Psixologiya fanlari doktori, professor
- Atabayeva Nargis Batirovna — Psixologiya fanlari doktori, dotsent,
- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
- Umarov Baxriddin Mengboyevich — Psixologiya fanlari doktori, professor
- Shamshetova Anjima Karamaddinovna — Psixologiya fanlari doktori, dotsent
- Norbekova Barno — Psixologiya fanlari falsafa doktori, dotsent
- Abdumajidova Dildora — Psixologiya fanlari falsafa doktori, dotsent

23.00.00 - Siyosiy fanlar

- Jo'raqulov Furqat Norjigitovich — Siyosiy fanlar doktori, professor
- Axmedov Husniddin Alikulovich — Siyosiy fanlar doktori, professor
- Musaev Mansur Tursunpulatovich — Siyosiy fanlar doktori, katta ilmiy xodim Ravshanov
- Fazluddin Ravshanovich — Siyosiy fanlar doktori, dotsent

22.00.00 - Sotsiologiya fanlari

- Xolbekov Abdug'ani Jumanazarovich — Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Sodiqova Shoxida Marxaboyevna — Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Gabdrahmanova Gulnara Faatevna — Sh. Marjani nomidagi Tarix instituti, Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Kamalova Xatira Sabirovna — Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

"Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar" - bu ilmiy-metodik jurnal bo'lib, O'zbekistonda 2024-yildan beri nashr etilmoqda. Jurnal har chorakda bir marta, yiliga 4 marta chop etiladi. Ushbu jarayonga talabga ko'ra muassislar va tahrir hayati bilan birgalikda kelishgan xolda o'zgartirish kiritish mumkin.

MUNDARIJA

07.00.00 – Tarix fanlari.....	6
SOVET DAVRIDA O‘ZBEKISTONDA XIZMAT KO‘RSATISH TIZIMINING GENEZISI VA SOHADAGI MUAMMOLARNI AHOLI TURMUSHIDA AKS ETISHI (MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH VA UMUMIY OVQATLANISH MUASSASALARI MISOLIDA).....	6
Nasirov Bunyod Uralovich.....	6
09.00.00 - Falsafa.....	13
“NANOTEXNOLOGIYA” TUSHUNCHASINING FALSAFIY TAHLILI	13
Ashirmatov Hayot Xaitovich.....	13
FALSAFIY ANTROPOLOGIYA MUSTAQIL BILIM SOHASI SIFATIDA.	19
G.T. Kabulniyazova.....	19
10.00.00 – Filologiya.....	24
FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TIBBIYOT TERMINLARINING TARKIBIY XUSUSIYATLARI.....	24
Abrayeva Shahnoza Esonovna	24
OLIY O‘QUV YURTLARIDA RUS TILINI O‘QITISHDA KOMPLEKS YONDASHUV	28
Mirrahimova Gulbahor Shuhratovna,.....	28
FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA XARAKTER IFODALOVCHI OTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR.....	31
Primova Munisa Majlimovna	31
ISTIQLOL DAVRI ROMANLARI GENEZISI	35
Yaqubov Islomjon Ahmedjonovich.....	35
HAMZA - JADID SHE‘RIYATINING ISTE‘DODLI KUYCHISI.....	42
Sevinchoy Yoqubova.....	42
FUZULIYNING TURKIY DEBOCHASIDA ADABIY-ESTETIK QARASHLAR TALQINI	48
Karimova Faridaxon Isakovna.....	48
FUZULIYNING UVAYSIYGA ADABIY TA‘SIRI	54
Nusratullo Jumaxo‘ja.....	54
OYBEK SH‘RIYATIDA VAZNNING FUNKSIYASI.....	59
Sabirdinov Akbar Gofurovich	59
SHE‘RIYATDA FALSAFIY MUSHOHADAKORLIK	69
Soatova Nodira Isomitdinovna	69
13.00.00 - Pedagogika.....	76

“SOVG‘A” ALIFBO KITOBİ	76
Abduvali Abdumutalibovich Yo‘ldashev	76
Adabiyotlar ro‘yxati:	79
РАССМОТРЕНЫ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ СПЕЦИАЛЬНОСТИ “ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ” К УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	80
Мухаммадиев Комил Бурхонович	80
OLIY TA‘LIM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI RIVOJLANISHINING NAZARIY YoDASHUVLARI	93
Saloxitdinov Sherzod Farxodovich	93
19.00.00 – Psixologiya	99
МОДЕЛИРОВАНИЕ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ЭКСПЕРИМЕНТЕ И ЕГО ОСОБЕННОСТИ	99
Хатамов Сирожиддин Мелихузи угли.....	99
Усманов Салахдин Аликулович.....	99
Аракулов Гайрат Тулкинович	99
23.00.00 – Siyosiy fanlar.....	105
GLOBALLASHUV SHAROITIDA YUZ BERAYOTGAN GEOMAFKURAVIY JARAYONLAR TADQIQINING FALSAFIY-METADOLOGIK ASOSLARI	105
Xoliqulov Muhammad Qaxor o‘g‘li.....	105

07.00.00 – Tarix fanlari

**SOVET DAVRIDA O‘ZBEKISTONDA XIZMAT KO‘RSATISH TIZIMINING
GENEZISI VA SOHADAGI MUAMMOLARNI AHOLI TURMUSHIDA AKS ETISHI
(MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH VA UMUMIY OVQATLANISH MUASSASALARI
MISOLIDA)**

Nasirov Bunyod Uralovich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU Jizzax filiali, dotsent

Annotatsiya: Maqolada mustabid sovet tuzumi davrida O‘zbekistonda aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish va umumiy ovqatlanish tizimining shakllanish jarayoni, tizimning faoliyati, sohaga doir hukumat dasturlarida belgilangan rejalar va ushbu rejalarining amalga oshirilishidagi ziddiyatli natijalar, sohalar faoliyatini Ittifoq respublikalariga nisbatan qiyosloviga oid ma‘lumotlarni ilmiy adabiyotlar va davriy matbuot hamda arxiv hujjatlari asosida tahlil etgan.

Kalit so‘zlar: maishiy xizmat ko‘rsatish tizimi, umumiy ovqatlanish muassasalari, “sotsialistik” turmush tarzi, hunarmandchilik, dastur, Ittifoq respublikalari, reja, soha, ko‘rsatkich, oshxona, tadqiqotchi, kadrlar qo‘nimsizligi.

**ГЕНЕЗИС СИСТЕМЫ ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В СОВЕТСКИЙ
ПЕРИОД И ОТРАЖЕНИЕ ПРОБЛЕМ СФЕРЫ В ПОВСЕДНЕВНОЙ ЖИЗНИ
НАСЕЛЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ И
УЧРЕЖДЕНИЙ ОБЩЕСТВЕННОГО ПИТАНИЯ)**

Аннотация: В статье рассматривается процесс формирования системы бытового обслуживания и общественного питания населения Узбекистана в годы советского режима. Автор анализирует деятельность данной сферы, планы, изложенные в правительственных программах, и противоречивые результаты их реализации. Также в работе сопоставлены показатели развития указанных сфер с аналогичными структурами в других союзных республиках. Исследование основано на научной литературе, периодической печати и архивных документах.

Ключевые слова: система бытового обслуживания, учреждения общественного питания, «социалистический» образ жизни, ремесленничество, программа, союзные республики, план, отрасль, показатели, столовая, исследователь, текучесть кадров.

**THE GENESIS OF THE SERVICE SYSTEM IN UZBEKISTAN DURING THE
SOVIET PERIOD AND THE REFLECTION OF SECTORAL PROBLEMS IN THE
DAILY LIFE OF THE POPULATION (A CASE STUDY OF HOUSEHOLD
SERVICES AND PUBLIC CATERING INSTITUTIONS)**

Abstract: This article explores the development of the household service and public catering systems in Uzbekistan during the Soviet era. The author analyzes the functioning of these sectors, the plans outlined in government programs, and the contradictions in their implementation. The study also includes a comparative overview of the performance indicators of these sectors in relation to other Soviet republics. The analysis is based on academic literature, periodical publications, and archival documents.

Keywords: household service system, public catering institutions, “socialist” lifestyle, handicrafts, program, Soviet republics, plan, sector, indicators, canteen, researcher, staff turnover.

Bugungi kunda xalqimiz tarixini haqqoniy yoritish jamiyatimiz oldida turgan ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, aynan tarix jamiyat ma'naviy taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston tarixini o'rganishda, xususan, sovet davrida aholining kundalik hayotida mavjud bo'lgan maishiy muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etgan maishiy xizmat ko'rsatish tizimining tarixi ham e'tiborga molik.

Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tizimi juda keng qamrovli bo'lib, tizimning to'g'ri yo'lga qo'yilishi insonlarning kundalik hayotida alohida o'ringa ega. Bundan tashqari ta'kidlash lozimki, aholining kundalik turmush darajasi integral tavsifga ega bo'lib, ushbu orqali ma'lum bir davlatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy darajasi to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Ma'lumki, sovet mamlakatida "sotsialistik turmush tarzi"ni barpo etish yoki "sotsialistik shahar"ni yaratish g'oyasi yuzasidan qator dasturlar va rejalar ishlab chiqila boshlandi. Mamlakatda "Sotsialistik turmush tarzi"ni yaratishda asosiy g'oyalardan biri- aholining maishiy turmushi va mehnat sharoitini yaxshilash ko'zda tutildi. Shu maqsadda, aholining maishiy turmushini ko'tarishga e'tibor qaratildi. Aynan, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tizimi sotsialistik jamiyatdagi hayotning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy tarmog'iga kuchli ta'sir o'tkazgandi.

1921 yil "Turkiston hunarmandchilik ittifoqi (Turkpromsoyuz)" tashkil qilindi. 1924 yili Turkiston Hunarmandchilik kooperatsiyasi tugatilganidan so'ng, "Uzbekselkredpromsoyuz" tashkiloti tarkibida dastlab hunarmandchilik bo'limi tashkil etildi. Mazkur bo'lim keyinchalik O'zbekiston Hunarmandchilik kooperatsiyasi tashkiliy byurosiga aylantirildi. Lekin bu idora uzoq muddat faoliyat yuritmadi. 1925 yilni oktyabr oyiga kelib, O'zbekiston Hunarmandchilik ittifoqi-(Uzpromsoyuz) tashkil bo'ldi. Bu tashkilot o'z faoliyatida qishloq xo'jaligi materiallarini ishlab chiqarish, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish, charm-kigiz poyabzallarga oid ishlar, to'qimachilik-trikotaj-tikuvchilikka oid ishlar, chiqindi xom ashyolarga qayta ishlov berish, transportlarga oid ishlar, metall va yog'ochga ishlov berish hamda hunarmandchilik mahsulotlarini sotish kabi ishlarni amalga oshirar edi.

Umuman, O'zbekiston tashkil topganidan so'ng, respublikada aholining maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi muammolari bilan asosan 3 ta tizim-O'zbek Hunarmandchilik kooperatsiyasi kengashi, Mahalliy sanoat xalq komissarligi hamda O'zbekiston Nogironlar kooperatsiyasi kengashi shug'ullandilar.

Arxiv hujjatlarida ko'rsatilishicha, XX asrning 20-yillar oxirida O'zbekistondagi kosib va hunarmandlarning ahvoli qo'shni respublikalarga nisbatan bir muncha qoloq bo'lgan, tizimni kerakli, malakali kadrlar bilan ta'minlash ishlari qoniqarsiz ahvolda tashkil etilgan, respublikaga "hech qaerga yaramaydigan va o'zbek tilini bilmaydigan" mutaxassislarini yuborilayotganligi, ammo mahalliy millat vakillaridan kadrlarni tayyorlashni yo'lga qo'yilmaganligi haqida fikrlar bildirilgan.

Keyingi yillarda tizim boshqaruvida nomi bir necha bor o'zgarib turgan. Jumladan, 1932 yil "O'zbekiston hunarmandchilik kengashi", 1934 yil "O'zbekiston hunarmandchilik ittifoqi" va 1938 yil "O'zbekiston hunarmandchilik kengashi". 1944 yil O'zbekiston Xalq komissarlari kengashi huzuridagi Hunarmandchilik kooperatsiyasi boshqarmasiga, 1950 yildan O'zbekiston Hunarmandchilik kooperatsiyasi kengashi nomida qayta tashkil etilgan. 1960 yil O'zbekiston Hunarmandchilik kooperatsiyasi faoliyati tugatilgan. 1962 yil O'zbekiston Mahalliy sanoat Bosh boshqarmasi negizida O'zbekiston Maishiy xizmat ko'rsatish bo'yicha Bosh boshqarmasi tashkil etildi. 1966 yil respublikada aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tizimi alohida vazirlik sifatida o'z faoliyatini boshladi.

Bu davrda tizim faoliyatini xo'jaliklar misolida ko'radigan bo'lsak, bu 1966 yilda respublikadagi 115 jamoa va davlat xo'jaliklarida doimiy maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari mavjud emas edi. Andijon viloyatida, 2 ta jamoa xo'jaligida maishiy xizmat muassasalari tashkil qilinmagan va 10 ta jamoa xo'jaligida faqatgina maishiy xizmat

ko'rsatishning 1-2 ta yo'nalish bo'yicha maishiy xizmat muassasasi mavjudligi aniqlangan. Buxoro viloyatida esa 19 ta jamoa xo'jaligida maishiy xizmat muassasalari tashkil qilinmagan, 65 ta jamoa xo'jaligida 1-2 ta yo'nalish bo'yicha maishiy xizmat ustaxonalari faoliyat olib borgan. Samarqand viloyatida ham 6 ta jamoa xo'jaliklarida maishiy xizmat ustaxonalari yo'q bo'lsa, 53 ta jamoa xo'jaliklarda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish bo'yicha 1-2 ta yo'nalish yo'lga qo'yilgan.

Sovet hukumati tomonidan aholining kundalik xayotidagi moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida, partiya va hukumat tomonidan bir qator chora tadbirlar belgilanib, sohani texnik ta'minlangan va mexanizatsiyalashgan yirik tarmoqqa aylantirish davlat siyosatining muhim vazifalardan biri etib belgilandi.

XX asrning 60-70 yillarida tizimni rivojlantirish, aholiga xizmat ko'rsatishning yangi turlarini tadbiq etish hamda xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish yuzasidan bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, boshqaruv tizimini to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, joylardagi viloyat, tuman, shaharlardagi mahalliy kengash vakillari hamda ijro-taqsimlovchi organlarining o'z hududidagi maishiy xizmat muassasalarining muammolariga yetarli e'tibor qaratmaganliklari oqibatida, aholining soha vakillariga nisbatan ehtiyoji kamayish o'rniga aksincha ortdi.

O'zbekistonda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish yuzasidan sovet hukumati rahbariyati tomonidan qator tashkiliy, huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Asosiy dasturlarda, turli sinflarning bo'lmasligi, shahar va qishloq o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-maishiy tafovutlar yo'qolishi, ishlab chiqarish hajmning rivojlanish darajasi hamda mehnatni tusiga karab, ishlab chiqarish shakllari va yaratilgan maishiy sharoitlarga ko'ra shahar va qishloq aholisi orasida tafovut bo'lmasligi rejalashtirildi.

XX asrning 70-yillariga kelib, tizimni moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga harakat qilindi, biroq maishiy xizmat ko'rsatish tizimi aholining talab va istaklariga javob bera olmadi. Masalan, 1974 yilda Sirdaryo viloyatidagi bironta jamoa yoki davlat xo'jaligida jamlangan holda buyurtmalarni qabul qilish punkti mavjud bo'lmagan. Jizzax viloyatida 50 ta davlat xo'jaligidan 14 tasida doimiy ustaxonalar umuman mavjud bo'lmagan, 23 tasida esa faqatgina sartaroshlik hamda poyabzallarni ta'mirlash kabi xizmat turlari bo'lgan.

1976 yilda Qashqadaryodagi 148 ta jamoa va davlat xo'jaligidan 64 tasida maishiy xizmat uyi mavjud bo'lsa, 21 ta xo'jalikda xizmat ko'rsatishning 1 turi yo'lga qo'yilgan, 13 ta xo'jalikda esa bironta ustaxona bo'lmagan. Maishiy xizmat ko'rsatish uylari viloyatning G'uzor va Dehqonobod tumanlarining 2-3 ta xo'jaligida, Koson, Chiroqchi hamda Qarshi tumanlarida 5 ta xo'jalikda tashkil etilgan.

XX asrning 70-80 yillariga kelib, har tomonlama ilmiy asoslangan rejalar o'rniga xalq xo'jaligi tarmoqlarini ma'muriy buyruqbozlik boshqaruvi hukmronligi asosida ko'r-ko'rona rivojlantirish avj oldi.

Natijada, O'zbekistonda shunday holat yuzaga keldiki, barcha iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha ittifoqdagi o'rtacha darajadan ancha orqada bo'lib, mamlakatda oxirgi o'rinlardan birini egallagan edi. Buning ustiga ushbu salbiy holat demografik vaziyat ta'sirida kuchayib bordi. Bu davrda milliy daromadning o'sish sur'atlari 70-yillar boshida 41 foizga, 80-yillar boshida esa 17 foizga tushib ketdi.

Har bir kishiga xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha O'zbekiston Ittifoq respublikalari orasida oxirgi o'rinlardan birida bo'lib, 1981-1985 yillar sarhisobiga ko'ra, maishiy xizmatni rivojlantirish sur'atlari pasayib ketgan. Xususan, qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish darajasi shahar aholisiga xizmat ko'rsatish darajasidan 1,6 baravar, kimyoviy tozalash bo'yicha -3,3, kir yuvish bo'yicha -5,1, poyabzal ta'mirlash bo'yicha -2,6 baravar orqadan bo'lgan.

Umuman bu yillarda respublikada aholiga maishiy xizmat ko'rsatish hajmi 68,3 foizga oshgan. Biroq, bu ko'rsatkichlar uy-ro'zg'or ishlarini yengillashtirish nazari bilan qaralganda ancha takomillashmagan. Bu yillarda kir yuvish xizmati -10 foizga oshgan bo'lsa, maishiy xizmat ko'rsatish strukturasi bo'yicha barcha ishlar -2,9 foiz dan -1,9 foizga kamaygan. 1980 yilda respublikada kishi boshiga kir yuvish xizmati -56 tiyin bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1987 yil -52 tiyinni tashkil etgan. Aholining uy-joy, oziq-ovqat, ijtimoiy-madaniy inshootlar bilan ta'minlanish darajasi pastligi, O'zbekistonda demografik vaziyat shundoq ham murakkab bo'lib turgan bir vaqtda bu o'lkaga boshqa mintaqalardan aholining "zo'rlik" bilan ko'plab ko'chib kelishi tub aholini uy-joy, oziq-ovqat va sanoat mollari, tibbiy va maishiy xizmat, bolalar bog'chasi va yaslilar bilan ta'minlashning yanada yomonlashuviga, respublika ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat hamda millatlararo munosabatlarning yanada keskinlashuviga olib keldi.

Umuman olganda, O'zbekistonda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari soni (yil yakuniga; ming hisobida) 1965 yil -8,4 ta, 1970 yil 13,4 ta, 1975 yil -16,2 ta, 1985 yil 20,4 ta va 1990 yil 26,9 tani tashkil etgan. 1990 yil O'zbekistonda amishiy xizmat ko'rsatish yo'nalishida kishi boshiga alohida turdagi pullik xizmat ko'rsatish hajmi (rubl miqdorida) -40,2 ni tashkil etilib, bu ko'rsatkich bo'yicha respublika ittifoqdosh respublikalar ichida oxirgi o'rinlarda edi.

Xizmat ko'rsatish sohasining bir tarmog'i hisoblanib, aholining kundalik hayotida alohida o'ringa ega bo'lgan umumiy ovqatlanish tizimi faoliyati ham muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, umumiy ovqatlanish tizimi kishilar hayotida alohida o'ringa ega bo'lib, unda ishning to'g'ri tashkil etilishi, sharoiti, sifati, aholining ehtiyoj va takliflarini inobatga olinishi o'z o'rnida muassasa rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy ovqatlanish muassasalari uzoq tarixga ega bo'lib, ularning zamonaviy ko'rinishlarini vujudga kelishida quyidagilarni e'tirof etish lozim. Bugungi kunda ham aholi ko'p tashrif buyuradigan choyxonalar qadimda rabotlar, bozor, guzarlar va mahallalardagi xushmanzara joylarga qurilgan, ularda choy-nondan tashqari turli qand-qurs, meva qoqilar sotilgan, taomlar ham tayyorlangan. Choyxonalarlar musofirlar, yo'lovchilar tunab qoladigan joy vazifasini ham bajargan. Qayd etib o'tish lozimki, choyxonalar fasl almashinishi jihatlarini inobatga olgan holda qishki va yozgi shaklida faoliyat yuritgan. Ayni vaqtda ham hududlardagi qator choyxonalarda shu kabi faoliyat ko'rsatish saqlanib qolganini ko'rish mumkin.

Qadimda karvonsaroylar atrofida barpo etilgan choyxonalarga nafaqat choy ichish uchun balki, turli masalalarda munozaralar bo'lib turgan. Jumladan, mahalliy aholi turli o'lkalardan kelgan sayohatchilar, olimlar va savdogarlar bilan uchrashgan, mamlakatlardagi yangiliklar to'g'risida ma'lumot olishgan hamda mahsulot bo'yicha savdo kelishuvi amalga oshirilgan.

Keyinchalik umumiy ovqatlanish tizimiga restoran kabi yangi yo'nalishlar vujudga keldi. XIX asr oxiriga kelib Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni bosib olganidan keyin "Rivera", "Parij", "Shimol" (Samarqand), "Regina", "Buffa", "Anona" (Toshkent) kabi restoranlarda faqat yuqori tabaqa vakillariga xizmat ko'rsatilgan.

Sovet hokimiyati davrida hukumat o'z g'oyalarini aholiga singdirishda ular uchun uzoq davrdan buyon an'anaviy bo'lgan choyxonalardan ustalik bilan foydalanishga harakat qilgan. Ularda turli mavzularda ma'ruzalar o'tkazish, gazeta va jurnallarni o'qish ishlari keng ko'lamda olib borilgan.

1930-yillar oxirlaridan boshlab bir qaraganda ovqatlanish tizimi faoliyatida o'zgarishlar ro'y berib, ularning miqdori yil sayin oshib borganidek ko'rinadi. Masalan, Toshkent shahrida oshxona va restoranlar soni 1924 yil 32 ta, 1938 yil 47 ta, 1939 yil-51, 1940-103 tani tashkil

qilgan. Tamaddixonalar soni 1938-yilda-103, 1939 y.-181, 1940 y. -302 donadan iborat bo'lgan.

Biroq, O'zbekistonda umumiy ovqatlanish tizimida yangi muassasalar tashkil etilgan bo'lsada, 1940 yilda 10.000 nafar aholiga 4 ta ovqatlanish muassasalari to'g'ri kelgan, o'z o'rnida bu ko'rsatkich shu davrda Gruziyada 5 tani, Ozarbayjonda -7, Latviyada-5, Estoniyada-5 taga to'g'ri kelgan. Bu borada fikrimizni davom ettirsak, O'zbekistonda umumiy ovqatlanish muassasalari soni 10.000 nafar aholiga 1940 yilda 4 taga, 1955 yil esa 5 taga va 1960 yilda 7 taga to'g'ri kelgan.

1960 yillarda respublikadagi bir qancha viloyatlarda umumiy ovqatlanish tizimni rivojlantirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi binolar barpo etish hamda umumiy ovqatlanish muassasalarini tegishli muammolarini bartaraf etishga yetarli e'tibor qaratmaganliklari oqibatida, respublikadagi zavod va fabrikalardagi oshxonalarda bir o'ringa Ittifoqda belgilangan me'yor bo'yicha 6 kishi o'rniga 11 kishi to'g'ri kelgan.

1960-yillar yakunida Samarqand, Bekobod shaharlaridagi temir beton buyumlari va sement zavodlari, Qo'qondagi paxta zavodi, Buxorodagi poyabzal fabrikasi hamda boshqa fabrikalardagi oshxona va bufetlar xizmat ko'rsatish uchun noqulay binolarda joylashgan, omborxonalar yo'qligi, o'rindiqlar juda kamligi aniqlangan. Xodimlar soni 2000 nafarni tashkil etgan Toshkent shahridagi asbob-uskunalar zavodi oshxonasida o'rindiqlar 80 kishiga mo'ljallangan, Toshkentdagi plastmassa buyumlar zavodidagi (1500 nafar) oshxonada bitta o'rindiqqa 40 kishiga, Namangandagi kostyum va shtapel matolar kombinat oshxonasida 30 kishi to'g'ri kelgan. Bu holatlar o'sha davrda aholining bunday xizmatdan foydalanishda muassasalarga ehtiyojni yuqori bo'lishida salmoqli o'rin egallagan.

Jizzax viloyatida esa 1977 yil viloyatdagi sanoat korxonalaridagi umumiy ovqatlanish muassasalarida 1000 nafar maksimal smenadagi xodimlarga -160 ta o'rin to'g'ri kelgan (me'yor bo'yicha 250 o'rin, davlat savdosi tizimida o'rtacha -180 o'rin) bo'lsa, o'quv yurtlarida 1000 nafar talabaga 80 o'rin, umum ta'lim maktablarida 1000 nafar o'quvchiga 50 o'rinni tashkil qilgan.

Sovet hukumati yillarida aholi turar joylarida umumiy ovqatlanish muassasalarini barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha bir muncha ishlar amalga oshirilgan. Biroq, yillar mobaynida ko'plab yirik tashkilotlar, o'quv yurtlari va qishloq hududlarida umumiy ovqatlanish muassasalarini barpo etish, rivojlantirish hamda mavjud muammolarini hal etishga yetarli e'tibor qaratilmagan.

Sohadagi muammolar o'sha davrda qator olimlarning tadqiqotlarida ham aks etadi. Xususan, R.X. Shodievning umumiy ovqatlanish tizimining faoliyati bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotida: so'rov o'tkazilganlardan - 48,1 foizi umumiy ovqatlanish tizimidan har kuni foydalanishlarini, -15,5 foizi alohida hollarda, -7 foizi umuman foydalanmasliklarini, -11,2 foizi esa oshxona, kafe va restoranlar xizmatidan dam olish kunlari foydalanishlarini ma'lum qilishgan. Shuningdek, ushbu tadqiqotda -24 foiz ishtirok etganlar o'z tashkilotlaridagi mavjud oshxonalarda emas, balki ochiq turdagi oshxonalardan foydalanishlarini, ish joyi va yashash joyidagi oshxonalardan foydalanmasliklari sababi so'ralganda -64 foiz so'rovda qatnashganlar taomlarning sifati pastligi hamda qimmatligini bayon etishgan.

Tadqiqotchi M.D.Radjabova tomonidan bu borada quyidagi ma'lumot qayd etiladi. Jumladan, bu davrda Toshkent shahridagi Chkalov nomidagi zavod ishchilarining umumiy sonidan 70 foizi uyida ovqatlanib, oshxonaga vaziyat taqazo qilgandan kirishlari aniqlanganligini, ijtimoiy tadqiqotlar natijasida, farzandlari bor bo'lgan ayollardan 5 foiz kundalik ehtiyojida umumiy ovqatlanish muassasalariga borishlari va bu ko'rsatkich hafta mobaynida 12 foiz (2-3 marotaba) tashkil etishini ma'lum qiladi.

Tadqiqotchi B.T.Barinov tomonidan 1960-1985 yillarda sovet mamlakatidagi aholining 10 ming nafar kishi hisobida umumiy ovqatlanish muassasalarida o'rindiqlar bilan ta'minlanganligi 206 dan 731 gacha yoki 3,5 marotabaga o'sganligi, bu boradagi hamda savdo

maydonlari bilan ta'minlanish Moldaviyada-6,9 marotabaga, Belorusiyada-5,1 marotabaga, Armanistonda esa -4,6 marotabaga ko'payganligi, Kavkaz orti (Gruziya va Ozarbayjonda) respublikalari hamda O'rta Osiyoda (O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikistonda) bu ko'rsatkichlar o'ta past darajada, ya'ni 3 marotabadan ham kam bo'lganligini qayd etilgan.

O'zbekistonda 1970 yillarda aholi uchun oshxona, kafe, restoranlarni hamda tashkilotlar, o'quv yurtlar, sanoat korxonalarda ham ovqatlanish tizimini qoniqarsiz darajada bo'lib, belgilangan me'yorlar bo'yicha 1000 nafar ishchiga 180-250 o'rin to'g'ri kelishi lozim bo'lsada, ammo ko'pgina o'quv yurtlari va korxonalarda bu me'yor talabga javob bermagan. Shu o'rinda, tibbiyot va politexnika institutlarida 4000 nafar talabaga oshxonalarda 140 va 60 ta o'rin to'g'ri kelgan.

Aholi tomonidan yarim mahsulotlar ishlatish bo'yicha O'zbekiston Ittifoq respublikalariga nisbatan sezilarli darajada orqada qolgan. Agar Ittifoq bo'yicha sanoat korxonalaridan olinayotgan yaxlit holatdagi go'shtli yarim mahsulotlar ulushi, yarim mahsulotlar chiqarish umumiy ko'rsatkichida 1970 yilda 47,9 foiz bo'lgan bo'lsa, O'zbekistonda -28,7 foiz, Tojikistonda- 72,6 foiz, Gruziyada-72,9 foiz, Moldaviyada 72,9, Qirg'izistonda -70,3 foiz bo'lgan. Bundan tashqari, go'shtni iste'mol qilish umumiy ko'rsatkichida yarim mahsulotlar ulushi ittifoqda -51,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, O'zbekistonda 26,7 foiz, Armanistonda-58,7 foiz va Moldaviyada 66,1 foizni tashkil etgan.

Kompartiyaning "sotsialistik" turmush tarzini targ'ib etish g'oyalari sifatida aholini uy ishlaridan ozod etish, umumiy ovqatlanish muassasalari tizimini kengaytirish va faoliyatini yaxshilash, maishiy xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirishga ko'rsatilgan holda xonadonlarda aholining taom tayyorlashlarini cheklash, buning o'rniga restoran hamda kafelarda ovqatlanishlarini yo'lga qo'yish uchun harakat yuz berdi. O'zbekistonda umumiy ovqatlanish muassasalari tizimini kengaytirishga va ularning faoliyati yaxshilashga, aholi uchun ma'lum bir qulayliklar yaratishga e'tibor qaratildi.

Biroq bu boradagi ishlar Ittifoqning boshqa respublikalaridagi kabi juda keng rivojlanmadi hamda aholi o'rtasida tashrif buyurish odatga kirmadi. Bunga asosiy sabablardan biri, aksariyat mahalliy aholi azaldan bo'sh vaqtini oila davrasida o'tkazishni, nonushta, tushlik yoki kechki ovqatni ham o'z oilasida tanovvul qilishni odat qilganligi, ko'pgina umumiy ovqatlanish muassasalarida taomlarning tayyorlanishi, sanitariya-gigiena qoidalariga rioya etilish holati va narxi aholining talab-istaklariga to'g'ri kelmaganligi hamda aholining restoran, kafe hamda oshxonalarda doimiy ovqatlanishlari uchun moliyaviy imkoniyat cheklanganligi edi.

Bundan tashqari, umumiy ovqatlanish korxonalarining milliy bayramlarda mahalliy aholi ehtiyojlariga mos ravishda taom pishirganligi tanqid ostiga olindi. Jumladan, xalqimizning qadimiy tarixi bilan bog'liq qadriyatlaridan biri Navro'z bayrami kunlarida respublikadagi bir qancha savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida un mahsulotidan tayyorlanadigan taomlar hamda qandolat mahsulotlarini tayyorlash va sotish ishlari amalga oshirilayotganligi O'zbekiston Savdo vazirligi tomonidan qattiq tanqid qilingan. Buning amaliy isboti sifatida barcha savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari kelgusida o'z faoliyatlarida Navro'z bayrami timsolini anglatuvchi taomlarni sotib olishi, tayyorlash hamda aholiga sotishi ta'qiqlangan.

Umuman olganda, sovet hukumati tomonidan "sotsialistik turmush tarzi"ni targ'ib etish g'oyalaridan biri sifatida umumiy ovqatlanish muassasalari tizimini kengaytirilgan va faoliyati yaxshilangan bo'lsa, ikkinchi tomondan bu borada aholi uchun ma'lum bir qulayliklar yaratilgan. Lekin, aholi ma'lum darajada umumiy ovqatlanish muassasalari faoliyatidan foydalangan bo'lsada, Ittifoqning boshqa respublikalaridagi kabi bu jarayon juda keng tarqalmadi. Buning asosiy sabablaridan biri o'zbek xalqining mentaliteti bilan bog'liq edi.

Ma'lumki, O'zbekistonda aksariyat mahalliy aholi azaldan bo'sh vaqtini oila davrasida o'tkazishni, tushlik yoki kechki ovqatni ham o'z oilasida tanovvul qilishni odat qilgan.

Ikkinchi tomondan esa mavjud ovqatlanish muassasalarining faoliyati aholining talabiga deyarli javob bermagan, ya'ni ko'pgina umumiy ovqatlanish muassasalarida taomlarning tayyorlanishi, sanitariya-gigiena qoidalariga rioya etilish holati va narxi aholining talab-istaklariga to'g'ri kelmagan.

Uchinchidan, restoran, kafe hamda oshxonalarda ovqatlanishlari uchun aholining moddiy mablag'i yetarli emas edi. Shu bilan birga bu umumiy ovqatlanish muassasalarida yevropacha taomlar bilan birga an'anaviy milliy taomlarning tayyorlanishi asta-sekin aholining ulardan foydalanishini ko'payishiga olib kelgan.

Qaramlik va mustabidlik sharoitida aholi turmush-tarzining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan maishiy xizmat muassasalarining rivojlanishi birmuncha sust kechdi. Maishiy xizmat ko'rsatish tizimida amalga oshirilgan o'zgarishlar aholi talab va ehtiyojlaridan hamda hududlarning mahalliy o'ziga xosligidan kelib chiqmadi, eng muhimi, sohaning infrastrukturasi shakllantirishga va kadrlar tayyorlash bilan bog'liq muammolarga panja ortidan qaraldi.

Oqibatda, Ittifoq respublikalari orasida mamlakatning maishiy xizmat muassasalari rivojlanish ko'rsatkichlari anchagina past darajaga tushib qoldi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillik ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 1991.
2. Saidov A.X. Sovet davrida O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar. – Toshkent: Fan, 1987.
3. Babaev E.B. Бытовое обслуживание населения в Узбекистане: организационная и развлекательная (1945–1980 гг.) // Журнал “История Узбекистана”, 2005, №2, – С. 45–52.
4. Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyoti (tahliliy xulosalar va raqamlar). – Toshkent: Davlat statistika qo'mitasi nashri, 2005.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O'zR MDA), fond №837, ro'yxat №5, ish №36.
6. Abdurahmonov Q. O'zbekistonda umumiy ovqatlanish tizimi tarixi (1917–1991). – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2018.
7. Usmanov J. Sovet O'zbekistonida hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish sohasi (20-asr 40–80-yillari). – Samarqand: SamDU nashri, 2012.
8. Yuldashev Sh.Sh. O'zbekistonda sovet davri maishiy madaniyati. – Toshkent: Fan, 2010.
9. Musaeva M. Sovet maishiy xizmat tizimining aholining turmush darajasiga ta'siri (masalaning tarixiy tahlili) // “O'zbekiston tarixi” jurnali, 2020, №3.
10. Abdullaev R. Tarixiy hujjatlar asosida: Sovet davrida Osiyo respublikalarida ovqatlanish va xizmat ko'rsatish tizimi. – Moskva: Nauka, 1989.